"ALPOMISH" DOSTONIDAGI SHAXS NOMLARI MA'NOSINING LUG'AVIY TAHLILI

To'raqulova Dilnoza Choriyevna
Termiz davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
1-kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining nodir namunasi bo'lgan "Alpomish" dostonidagi shaxs nomlarining lug'aviy-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Doston qahramonlari ismlarining kelib chiqishi, ma'nosi va ramziy mohiyati folklorshunoslik hamda tilshunoslik nuqtayi nazaridan yoritiladi. Alpomish, Barchin, Boybo'ri, Boysari, Qorajon va Ultontoz kabi obrazlar ismlari orqali xalqning mardlik, sadoqat, go'zallik, kuch-qudrat va ijtimoiy mavqe haqidagi tasavvurlari ifodalangani ko'rsatib beriladi. Shuningdek, maqolada ism va xarakter uyg'unligi, turkiy xalqlarning qadimiy nomlash an'analari hamda doston tilining milliy-madaniy xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Alpomish, doston, ismshunoslik, lug'aviy tahlil, folklor, antroponim, semantika, turkiy tillar, xalq og'zaki ijodi, qahramon obrazi.

Аннотация. В данной статье анализируются лексико-семантические особенности личных имён в узбекском народном эпосе «Алпомиш». С точки зрения фольклористики и языкознания рассматриваются происхождение, значение и символическая сущность имён героев эпоса. На примере таких персонажей, как Алпомиш, Барчин, Байбури, Байсары, Каражан и Ултонтоз, раскрываются народные представления о мужестве, верности, красоте, силе и общественном статусе. Также в статье освещаются вопросы взаимосвязи

имени и характера, древних тюркских традиций именования и natsionalno-культурных особенностей языка эпоса.

Ключевые слова: Алпомиш, эпос, ономастика, лексический анализ, фольклор, антропоним, семантика, тюркские языки, устное народное творчество, образ героя.

Annotation. This article examines the lexical and semantic features of personal names in the Uzbek folk epic "Alpomish." The origin, meaning, and symbolic essence of the names of epic characters are analyzed from the perspectives of folklore and linguistics. Through the names of such characters as Alpomish, Barchin, Boybo'ri, Boysari, Qorajon, and Ultontoz, the study reveals the people's ideas about bravery, loyalty, beauty, strength, and social status. The article also discusses the harmony between name and character, ancient Turkic naming traditions, and the national-cultural features of the language of the epic.

Keywords: Alpomish, epic, onomastics, lexical analysis, folklore, anthroponym, semantics, Turkic languages, oral folk art, hero image.

O'zbek xalqining boy og'zaki ijodi orasida "Alpomish" dostoni alohida o'rin egallaydi. Ushbu doston xalqning tarixiy xotirasi, urf-odati, dunyoqarashi, orzu-intilishlari va milliy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan bebaho asardir. Doston qahramonlari nafaqat o'z xarakteri, jasorati yoki ruhiy dunyosi bilan, balki ularning ismlari orqali ham muayyan ma'no va ramziy mazmunni ifodalaydi. Xalq og'zaki ijodida ism tanlash tasodifiy bo'lmaydi. Har bir ism qahramonning taqdiri, ijtimoiy mavqei, ruhiyati yoki xalq orasidagi o'rnini ifodalashga xizmat qiladi.

"Alpomish" dostonidagi kishilar ismlarini tahlil qilish orqali o'sha davr xalqining til boyligi, etnografik qarashlari, qadimiy nomlash an'analari va estetik tafakkurini chuqurroq anglash mumkin. Doston qahramonlari ismlarida turkiy

xalqlarga xos mardlik, sadoqat, go‘zallik, kuch-qudrat kabi tushunchalar mujassam. Ushbu maqolada dostondagi asosiy va ikkinchi darajali qahramonlar ismlarining lug‘aviy ma’nosi tahlil qilinadi.

Turkiy xalqlar folklorida ism muhim ramziy ahamiyatga ega bo‘lgan. Qadim zamonlarda bola tug‘ilgach unga ism qo‘yishda ota-onalar farzandining kelajagini, fazilatlarini yoki oilaning orzu-umidlarini ifodalashga harakat qilganlar. Shu sababli ko‘plab qahramonlik dostonlarida uchraydigan ismlar kuch, jasorat, go‘zallik va matonatni anglatuvchi so‘zlardan tashkil topgan. “Alpomish” dostonida ham aynan shu holatni kuzatamiz. Dostondagi qahramonlar ismlarining aksariyati turkiy ildizlarga ega bo‘lib, ular orqali xalqning mentaliteti va qadriyatlari namoyon bo‘ladi. Qahramonlarning ismiga qarab ularning xarakterini oldindan tasavvur qilish mumkin. Masalan, Alpomish nomida kuch va bahodirlik mujassam bo‘lsa, Barchin ismida noziklik va go‘zallik ifodalanadi.

Shuningdek, dostonda ism va taqdir o‘rtasidagi uyg‘unlik ham muhim o‘rin tutadi. Ism qahramonning ichki mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Folklorshunoslik nuqtayi nazaridan bu hodisa “nom va xarakter uyg‘unligi” deb ataladi.

Dostonning bosh qahramoni Alpomish xalq idealining timsolidir. “Alpomish” ismi ikki qismdan tashkil topgan: “alp” va “-mish”. “Alp” qadimgi turkiy tillarda “bahodir”, “jasur”, “pahlavon” ma’nolarini bildiradi[2:9]. Bu so‘z ko‘plab turkiy xalqlar eposida uchraydi. Masalan, “Alp Er To‘nga”, “Alpamysh”, “Alp Arslon” kabi nomlarda ham ushbu ildiz mavjud.

“Alpomish” nomidagi “mish” qo‘shimchasi esa ayrim tadqiqotchilar tomonidan kuchaytiruvchi yoki e’tibor qaratish ma’nosida izohlanadi. Natijada “Alpomish” so‘zi “eng bahodir”, “ulug‘ pahlavon” degan ma’noni anglatadi.

Doston voqealari davomida u mard, jasur, vatanparvar, sodiq va matonatli inson sifatida tasvirlanadi. Qahramonning harakati uning ismida mujassam bo'lgan ma'noni to'liq ochib beradi. Alpomish xalqning ideal o'g'loni sifatida tasvirlanganligi sababli uning ismi ham xalq orzu qilgan mukammal inson timsolini aks ettiradi.

Dostondagi eng muhim ayol qahramonlardan biri Barchindir. Ayrim variantlarda u Barchinoy nomi bilan ham uchraydi. "Barchin" so'zi qadimgi turkiy tillarda "ipak", "nozik mato", "go'zal va nafis" [1:48] ma'nolarini anglatadi. Bu ism orqali qahramonning go'zalligi, nazokati va latofati ifodalangan. Biroq Barchin obrazi faqat go'zallik timsoli emas. U aqlli, matonatli va sadoqatli ayol sifatida ham gavdalanadi. Doston davomida Barchin o'z sevgisi va vafodorligini saqlab qoladi. Shu jihatdan uning ismi tashqi go'zallik bilan birga ichki poklik va ma'naviy go'zallikni ham ifodalaydi.

Barchin obrazi o'zbek ayollariga xos fazilatlarning mujassamidir. U o'z sevgisi uchun kurashadi, qiyinchiliklarga bardosh beradi va Alpomishga sadoqatli bo'lib qoladi. Ismning nozik ohangi obrazning ruhiy dunyosiga mos tushadi.
Folklorda ayol qahramonlarning ismi ko'pincha tabiat yoki nafislik bilan bog'liq bo'ladi. Barchin nomi ham ana shunday estetik mezon asosida yaratilgan. Bu ism xalqning ayol go'zalligiga bo'lgan qarashlarini aks ettiradi.

Dostondagi muhim qahramonlardan yana ikkitasi. – Boybo'ri va Boysari. Ular Alpomish va Barchinning otalari bo'lib, urug' boshliqlari sifatida tasvirlanadi.

"Boybo'ri" ismi "boy" va "bo'ri" so'zlaridan tashkil topgan. "Boy" so'zi qadimdan mol-dunyoli, badavlat, nufuzli inson ma'nosini bildiradi [1:66]. "Bo'ri" esa turkiy xalqlarda jasorat, kuch va erkinlik ramzi hisoblangan. Demak, Boybo'ri nomi "qudratli va nufuzli bahodir" degan ma'noni anglatadi. Bo'ri obrazi turkiy

mifologiyada alohida ahamiyatga ega. Qadimgi turkiy xalqlar bo'rini muqaddas hayvon deb bilganlar. Shu sababli dostondagi bu ism qahramonning kuchli va qat'iyatli shaxs ekanini bildiradi.

"Boysari" nomida ham "boy" so'zi mavjud. "Sari" yoki "soriy" so'zi ayrim manbalarda "ulug'", "katta", "hurmatli" ma'nolarida izohlanadi. Bu ism Boysarining jamiyatdagi obro'-e'tiborini ko'rsatadi [1:66, 376].

Boybo'ri va Boysari o'rtasidagi munosabatlar dostondagi asosiy voqealarning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Ularning ismlari ham ijtimoiy mavqe va urug' boshliqligini ifodalovchi ramziy vosita sifatida xizmat qiladi.

Qorajon dostondagi eng sodiq va mard qahramonlardan biridir. Uning ismi "qora" va "jon" so'zlaridan tashkil topgan. O'zbek tilida "qora" so'zi ko'pincha kuch, qat'iyat yoki salobat ma'nolarida ishlatiladi [1:545]. "Jon" esa insonning ruhi, qalbi degan ma'noni bildiradi. Qorajon obrazi Alpomishga sodiq do'st sifatida gavdalanadi. U do'stlik va vafodorlik timsolidir. Uning ismida salobat va samimiyat uyg'unlashgan. Doston davomida Qorajonning mardligi va sadoqati uning ismiga mos ravishda ochib beriladi. Turkiy xalqlarda "qora" so'zi ba'zan ulug'lik yoki buyuklik ma'nosida ham qo'llanadi. Masalan, "Qoraxon", "Qorabek" kabi ismlarda ham ushbu holat kuzatiladi. Shu sababli Qorajon nomida ham kuchli xarakter va matonat ifodasi mavjud.

Dostondagi salbiy qahramonlardan biri Ultontozdir. Bu ism obrazning xarakterini ochishga xizmat qiladi. O'zbek tilining izohli lug'ati"da "ulton" so'ziga shunday izoh beriladi: "Ulton" shv. Qoramol terisidan tayyorlangan, pishiq, qalin charm, tagcharm" [3:280]. "Ulton" so'zi xalq tilida ba'zan pastkashlik yoki quyi tabaqa ma'nolarida ishlatilgan. "Toz" esa ayrim hollarda masxarali yoki salbiy ohangni kuchaytiruvchi unsur sifatida talqin qilinadi. Ultontoz obrazi xiyonatkor

va manfaatparast inson sifatida tasvirlangan. Uning ismi ham salbiy kayfiyat uyg'otadi. Xalq dostonlarida yovuz qahramonlarning ismi ko'pincha qo'pol yoki salbiy ohangli qilib tanlangan. Bu usul tinglovchida qahramonga nisbatan dastlabki munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

Folklorda ism orqali xarakter yaratish keng qo'llanilgan badiiy usullardan biridir. Ultontoz nomi ham ana shu an'anaga mos ravishda yaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, "Alpomish" dostonidagi kishilar ismlari oddiy nom emas, balki chuqur badiiy va ramziy ma'noga ega vositalardir. Har bir ism qahramonning xarakteri, ruhiy dunyosi, jamiyatdagi o'rni va taqdirini ifodalashga xizmat qiladi. Alpomish nomida bahodirlik va qudrat, Barchin ismida go'zallik va sadoqat, Boybo'ri hamda Boysari nomlarida nufuz va kuch, Qorajon ismida do'stlik va matonat mujassam.

"Alpomish" dostoni xalqimizning bebaho ma'naviy merosi sifatida avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Undagi qahramonlar ismi esa xalqning ezgu orzulari, mardlik va sadoqat haqidagi tasavvurlarini bugungi kungacha etkazib kelayotgan muhim badiiy vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 608 б.
2. Мирзаев Т. ва б. "Алпомиш" достонининг изоҳли луғати. – Тошкент: "Elmus-Press-media", 2007. – 162 б.
3. O'TIL. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
4. Madayev O. Alpomish haqida suhbatlar. // www.kitob.uz

5. Jumanazarova G. Fozil shoir dostonlari tilining leksik-stilistik qatlamlari: Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2012.
6. Rahimov A.S. O'zbek xalq dostonlari lekiskasining qiyosiy-tarixiy tahlili (Ergash Jumanbulbul o'g'li ijodi misolida): Filol. fanlari nomz. ...diss. avtoref. – Samarqand, 2002. – 26 b.
7. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Xonimova Maryam. (2024). BUYUK ZAMONDOSHLAR, MANGU YASHAGAY. *PEDAGOGS*, *57*(1), 132–138.
8. Saidmuradova, S., & Madina, T. L. (2024). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI POETIKASI. *PEDAGOGS*, *57*(1), 147-152.
9. Xurramovna, Q. G., & To'raqulovna, D. M. (2025, December). "FARHOD VA SHIRIN" DOSTONIDAGI ONOMOSTIK BIRLIKLARNING BADIIY-POETIK AHAMIYATI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION.* (Vol. 1, No. 5, pp. 58-61).
10. Komilovna M. S. Hydronims Formed by the Method of Syntactic and Transonimization //World Bulletin of Social Sciences. – T. 37. – C. 16-18.
11. Dilshoda, A., Dilfuza, T., Muxlisa, M., & Dildora, A. (2025). MAXTUMQULI SHE'RIYATIDA HAYOTIYLIK. SHOKH LIBRARY, 1(11).
12. Abdurashidovich M. A. LINGUISTIC APPROACH TO NESTED DICTIONARIES AND THEIR HISTORICAL DEVELOPMENT //Multidisciplinary and Multidimensional Journal. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 144-147.
13. Farida, X., To'xtayeva, D., Murtazayeva, M., & Abdurahmonova, D. (2025). "LISON UT-TAYR" DOSTONINING BOBLAR BO 'YICHA

TASNIFI. *PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI*, *17*(02), 117-121.

14. Najibullo, S., & Manzura, B. (2024). IMPORTANCE OF DIALECTS IN PLACE NAMES [J]. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, *11*(02).
15. Raimnazarova Nasiba Xoliyarovna, Abduhakimova Shahlo Shuxratjon qizi. (2026). INGLIZ TILI SINFLARIDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHI O'ZARO HAMKORLIGI NAZARLARI: DUXTAT TAHLILI. *Efiopiya xalqaro ko'p tarmoqli tadqiqotlar jurnali* , *13* (03), 1266–1270.
16. Sayfullayev, N. (2023). TERMS ARE AN INDIVIDUABLE WEALTH OF OUR LANGUAGE. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, *10*(10), 168-170.
17. Iboralarni uslublarga ajratish mezonlari: nazariy va amaliy yondashuv (frazeologik birliklar stilistik tahlili asosida). (2025). *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY*, *2*(6), 12-16.
18. Zafariddin, Temirov, and Xujanova Nasiba. "The Triumph of Light Over Darkness." *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, vol. 33, 20 Feb. 2025, pp. 34-37.
19. Tulkinjon, K. (2020). About historiography of historical geography of northern Bactria. *Journal of Critical Reviews*, *7*(18), 748-758.
20. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SOZ TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, *1*(4), 34-37.